

## FUQAROLIK PROTSESSIDA SUD XARAJATLARI VA SUD JARIMALARI

*Xudaynazarova Uldaulet Muratovna*

*Qoraqolpoq davlat universiteti Yuridika fakulteti talabasi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada fuqarolik prosessida sud xarajatlari tushunchasi va turlari, da'vo bahosi, ish yuritish bilan bog'liq bo'lgan chiqimlar, sud xarajatlarini to'lashdan ozod qilish va uning asoslari, taraflar o'rtasida sud xarajatlarini taqsimlash, sud xarajatlarini qaytarish uchun asoslar, sud jarimalari, sud jarimalarini solish asoslari va tartibi, jarimani kamaytirish yoki uni to'lashdan ozod qilish, jarima solish haqidagi ajrim va uning ustidan shikoyat qilish tartibi haqida asosiy tushunchalarni berish va talabalarda mazkur prosessual institut haqida tegishli bilimlarni shakllantirishdan iborat.

**Kalit so'zlar:** Sud xarajatlar, davlat boji, sud chiqimlari, da'vogar, javobgar, guvohlar, ekspertlar, mutaxassislar, tarjimonlar.

Sud xarajatlari deganda, fuqarolik ishini ko'rish va hal qilish bilan bog'liq ishda ishtirok etuvchi shaxslar tomonidan qilinadigan qonunda nazarda tutilgan xarajatlar tushuniladi.

Davlat boji yuridik ahamiyatga molik harakatlarni amalga oshirganlik va (yoki) bunday harakatlar uchun vakolatli muassasalar va (yoki) mansabdor shaxslar tomonidan hujjatlar berganlik uchun olinadigan majburiy to'lov (O'zbekiston Respublikasining "Davlat boji to'g'risida"gi Qonuni 3-moddasi).

Fuqarolik protsessual kodeksining 133-moddasida, davlat bojini to'lashni kechiktirish, bo'lib-bo'lib to'lash va ularning miqdorlarini kamaytirish belgilangan.

Agar ishni muhokamaga tayyorlash paytida da'vogar alimentni undirish to'g'risidagi ishni tugatish haqida ariza bergan bo'lsa, bunday hollarda javobgardan davlat boji undirilmaydi.

Fuqarolik protsessual kodeksiga muvofiq, sud taraflarning mulkiy ahvoriga qarab, ulardan birining yoki ikkalasining davlat daromadiga undiriladigan sud xarajatlarini to'lashni kechiktirishga yoki bo'lib-bo'lib to'lashga yo'l qo'yishi, shuningdek, bu xarajatlarning miqdorini kamaytirishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasining "Davlat boji to'g'risida"gi Qonunining 8-moddasida fuqarolik ishlari bo'yicha sudga murojaat qilish asoslari ko'rsatilgan.

Sud xarajatlari davlat bojidan tashqari ishni ko'rish bilan bog'liq bo'lgan chiqimlarga bo'linadi.

Ishni ko'rish bilan bog'liq bo'lgan chiqimlarga quyidagilar kiradi:

- guvohlar, ekspertlar, mutaxassislar, tarjimonlarga to'lanishi lozim bo'lgan summalar:

- joyga borib ko'zdan kechirish bilan bog'liq bo'lgan xarajatlar: Fuqarolik protsessual kodeksining 140-moddasida nazarda tutilgan hollarda, javob garni qidirish uchun qilingan xarajatlar;

- sudning hal qiluv qarorini ijro etish bilan bog'liq xarajatlar.

FPKning 110-moddasida davlat bojini to'lashdan ozod qilish qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshirilishi belgilab qo'yilgan.

Soliq kodeksining 329-moddasida umumiy yurisdiksiya sudlarida davlat bojini to'lashdan quyidagilar ozod qilinishi nazarda tutiladi: Umumiy yurisdiksiya sudlarida davlat bojini to'lashdan quyidagilar ozod qilinadi:

1) da'vogarlar ish haqini undirib olish to'g'risidagi da'volar va mehnat huquqlari munosabatlaridan kelib chiqadigan boshqa talablar yuzasidan;

2) da'vogarlar mualliflik huquqlari va turdosh huquqlardan, shuningdek ixtiro, foydali model, sanoat namunasi, tovar belgisi, xizmat ko'rsatish belgisi va tovar kelib chiqqan joy nomiga, seleksiya yutug'iga bo'lgan huquqdan kelib chiqadigan da'volar yuzasidan;

3) da'vogarlar alimentlar undirish to'g'risidagi da'volar yuzasidan;

4) da'vogarlar mehnatda mayib bo'lganligi yoki sog'lig'ining boshqacha tarzda shikastlanganligi, shuningdek boquvchisi vafot etganligi tufayli yetkazilgan zararining o'rnini qoplash to'g'risidagi da'volar yuzasidan;

5) da'vogarlar noqonuniy hukm etish, jinoiy javobgarlikka tortish, ma'muriy jazo berish tufayli jismoniy shaxsga yetkazilgan zararining o'rnini qoplash bilan bog'liq nizolar yuzasidan;

6) da'vogarlar jinoyat tufayli yetkazilgan moddiy zararining o'rnini qoplash to'g'risidagi da'volar yuzasidan;

7) jinoyat tufayli yetkazilgan moddiy zararining undirib olinishi to'g'ri yoki noto'g'ri ekanligi nizolashilayotgan jinoyat ishlari bo'yicha apellyasiya va kassasiya shikoyatlari bilan murojaat qilgan shaxslar;

8) nikohni bekor qilish to'g'risidagi mol-mulkni bo'lish bilan bog'liq bo'lmagan ishlar bo'yicha apellyasiya va kassasiya shikoyatlari bilan murojaat qilgan shaxslar;

9) yuridik va jismoniy shaxslar jinoyat ishlari va alimentlarni undirishga doir fuqarolik ishlari bilan bog'liq hujjatlarni ularga berganlik uchun;

10) qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollarda boshqa shaxslarning qonun bilan muhofaza qilinadigan huquqlari hamda manfaatlarini himoya qilinishini so'rab sudga ariza bilan murojaat etgan yuridik va jismoniy shaxslar;

11) yuridik va jismoniy shaxslar.

Sud tomonidan tan olingan boshqa zurur xarajatlar. Bu to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2009-yil 24-noyabrdagi 14-sonli «Fuqarolik ishlari bo'yicha sud xarajatlarini undirish amaliyoti to'g'risida»gi qarorining 13-bandida tushuntirish berilgan. Unga ko'ra, boshqa sud xarajatlariga, sud tomonidan

oqilona miqdorlarda belgilanadigan, haqiqatda yo'qotilgan vaqt uchun undiriladigan kompensasiya, vakilning yordami uchun to'lanadigan xarajatlar va boshqalar kiradi.

Sudlarning e'tibori shunga qaratilsinki, Fuqarolik protsessual kodeksining 137-moddasida nazarda tutilgan yo'qotilgan vaqt uchun haq sud tomonidan ishda mavjud hujjatlar asosida: da'vogardan - insofsizlik bilan asossiz da'vo taqdim etilganda yoxud ishning to'g'ri va o'z vaqtida ko'rib chiqilishiga muntazam qarshilik qilingan holda;

javobgardan insofsizlik bilan da'voga qarshi e'tiroz bildirilganda yoxud ishning to'g'ri va o'z vaqtida ko'rib chiqilishiga muntazam qarshilik qilingan holda undirilishi mumkin.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Shoraxmetov Sh.Sh. O'zbekiston Respublikasining fuqarolik protsessual huquqi. -Toshkent, Adolat, 2007.

2. Шорахметов Ш.Ш. Ўзбекистон Республикасининг Фуқаролик процессуал кодексига шарҳлар. Тошкент, ТДЮИ, 2010.

3. Мамасиддиқов М.М. Фуқаролик процессуал ҳуқуқи. Дарслик. Умумий қисм. Тошкент: ТДЮИ, 2010.

4. Xabibullayev D.Yu. Fuqarolik protsessual huquqi (savollar va javoblar). - Toshkent, TDYU, 2014.

5. Комментарий к Гражданскому процессуальному кодекс Республики Узбекистан. Ташкент, Адолат, 2016. 6. Фуқаролик ишлари бўйича судга муурожаат қилиш тартиби. Амалий кўлланма. Тошкент. Vaktoria press, 2016.